

FRANSUZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Qalandarova Ro'zaxon Fayzulla qizi

O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Fransuz tili, dunyoda eng ko'p o'rganiladigan tillardan biri bo'lib, uning o'rganilishi nafaqat til bilimlarini, balki madaniyat va an'analarni ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lif metodlari yordamida fransuz tilini o'qitish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada fransuz tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar va yondashuvlar haqida so'z yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *Biznes, marketolog, SMM, global, platforma, Le livre numerique, Le livre papier, gadget, Nouvelle Vague.*

Bugungi kunda rivojlanayotgan sohalardan juda ko'p. Bular misolida biz biznes, marketolog, SMM, tadbirkorlik yo'nalishlarini nazarda tutsak, aslida esa hammasining negizida esa til o'rganish orqali erishilgan muvafaqqiyat yotadi. Chunki, til aloqa vositasi sifatida hayotga shaxdam qadamlari bilan kirib keldi. Shulat qatoridagi tillardan biri bu-Fransuz tilidir. Fransuz tili, dunyo bo'ylab millionlab odamlar tomonidan gapiriladigan va ko'plab mamlakatlarda rasmiy til sifatida tan olingan bir tildir. Zamonaviy davrda, tilni o'qitish jarayoni an'anaviy usullardan zamonaviy va innovatsion metodlarga o'tmoqda. Fransuz tilida yuqorida ta'kidlanganidek, ko'plab davlatlarda rasmiy til yoki ikkinchi til sifatida qo'llashadi. Buni biz mamlakatlar kesimida ko'rishimiz mumkin. Fransuz tili Fransyaning rasmiy tili bo'lib, mamlakatda ta'lif, hukumat va madaniyat sohalarida keng qo'llaniladi. Belgiyada ham fransuz tili rasmiy tillardan biri hisoblanadi. Mamlakatning janubiy qismida joylashgan Valoniya mintaqasida keng tarqalgan. Kanadada fransuz tili rasmiy til sifatida tan olingan. Quebec provinsiyasida fransuz tili keng tarqalgan va bu yerda fransuz madaniyati rivojlangan. Ko'plab Afrika davlatlarida fransuz tili rasmiy yoki ikkinchi til sifatida qo'llaniladi. Masalan:

- Senegal
- Kamerun
- Ivory Coast (Kosta-de-Fild)
- Burkina Faso
- Madagaskar

- Ushbu davlatlarda fransuz tili ta'lif, hukumat va biznes sohalarida muhim rol o'ynaydi. Fransuz Polineziyasi, Martinika, Guadeloupe kabi fransuz tilida muloqat qiladigan mintaqalar ham mavjud. Bu joylarda fransuz tili rasmiy til sifatida ishlataladi. Fransuz tili Yevropa Ittifoqining rasmiy tillaridan biri bo'lib, ko'plab Yevropa davlatlarida, jumladan, Lyuxtensteyn, Monako va boshqa davlatlarda ham fransuz tilida muloqat qilinadi. Sababi, Fransuz tili global miqyosda muhim til bo'lib, ko'plab madaniyatlar va xalqlar o'rtasida muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Birinchidan, chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodlar o'qitish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha o'quvchilarni passiv ravishda qoniqarsiz ma'lumot olishga majbur etadi. Biroq, zamonaviy metodlar, masalan, kommunikativ yondashuv, o'quvchilarni faol ishtirok etishga, muloqot qilishga va fransuz tilida o'z fikrlarini ifoda etishga undaydi. Bu yondashuv o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va ularning o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shular qatorida biz hozirgi zamon talabi bo'lgan texnologiyalarga yuzlanamiz. Zamonaviy texnologiyalar yordamida fransuz tilini o'rganish jarayoni yanada qulay va samarali bo'ladi. Onlayn platformalar, masalan, Duolingo, Babbel va Rosetta Stone, o'quvchilarga o'z vaqtida va o'z sur'atida tilni o'rganish imkonini beradi. Mobil ilovalar yordamida o'quvchilar so'z boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash va grammatika qoidalarini o'rganishlari mumkin. Bu yondashuv, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari yevropa davlatlarida amliyotda tadbiq etilgan electron kitoblar ham shular jumlasidandir. Sababi ular har qanday sharoitda ham dars qilishga, ilim olishga qulay va osonlik imkonini beradi. Aynan Fransiyada ham "Le livre numerique", "Le livre papier" o'rtaida munozaralar ko'p bo'ladi. Aslini olib qaraganda qog'oz kitoblardan voz kechib zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yaxshi lekin, biz qo'llaydigan bu gadgetlar inson salomatligi uchun xafv tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham ikkita metoddan ham foydalansak maqsadga muvfiq bolar edi. Ikkinchidan, zamonaviy metodlar, madaniyatni o'qitish jarayoniga kiritishni ta'minlaydi. Til o'rganish faqatgina grammatik qoidalarni va so'zlarni o'rganishdan iborat emas, balki o'sha tilni gapiradigan xalqning madaniyatini, urf-odatlarini va tarixini o'rganish ham muhimdir. Zamonaviy metodlar orqali o'quvchilar fransuz madaniyati bilan tanishishlari, fransuz filmlarini tomosha qilishlari, musiqa tinglashlari va hatto fransuz tilida yozilgan adabiyotlarni o'qishlari mumkin. Bu esa, ularning tilni o'zlashtirish jarayonini chuqurlashtiradi va tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi ya'ni fransuz madaniyati, an'analari va urf-odatlari haqida ma'lumot berish, o'quvchilarga tilni o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Madaniy tadbirlar, masalan, fransuz taomlari tayyorlash yoki fransuz san'atini o'rganish, o'quvchilarga madaniyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Rassomlik: Fransiya san'at tarixida muhim rol o'yagan. Claude Monet, Edgar Degas, Paul Cézanne va Henri Matisse kabi mashhur rassomlar fransuz san'atining asoschilaridan hisoblanadi. Parijda joylashgan Luvr muzeyi dunyodagi eng katta va eng mashhur san'at muzeylaridan biridir. - Haykaltaroshlik: Auguste Rodin va Camille Claudel kabi haykaltaroshlar fransuz haykaltaroshlik san'atini rivojlantirgan. Bundan tashqari fransuz modasi ham butun dunyoga mashxur aniqroq qilib aytganda, Fransiya, ayniqsa Parij, moda va dizayn sohasida yetakchi hisoblanadi. Chanel, Dior, Louis Vuitton kabi brendlар fransuz modasining ramzi hisoblanadi. Parijda har yili moda haftaligi o'tkaziladi, bu yerda yangi kolleksiyalar taqdim etiladi. Filmlar misolida ham oladigan bo'lsak, tarixiy meroslar aynan shu filimlarda namoyon bo'ladi. "Nouvelle Vague" (Yangi to'lqin) harakati 1960-yillarda fransuz kinosining yangi yo'nalishini belgilagan. François Truffaut va Jean-Luc Godard kabi rejissyorlar bu harakatning asoschilarini shular

jumlasidandir. Umumiylar qilib aytganda, fransuz madaniyati o'zining boy tarixi, san'at va adabiyotdagi yantuqlari, gastronomiya va modadagi innovatsiyalari bilan dunyo bo'ylab tanilgan va qadrlanadi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lif yondashuvi zamonaviy metodlarning muhim jihatlaridan biridir. Har bir o'quvchining o'rganish usuli va tezligi turlicha bo'ladi. Zamonaviy metodlar, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lif berishga imkon beruvchi usullarni qo'llaydi. Shunday ekan bir so'z bilan aytganda, chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlar va yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tilni amaliy ravishda o'rganish va madaniyatni tushunishga yordam beradi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar tilni samarali va qiziqarli tarzda o'rganishlari mumkin. O'qituvchilar, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv yondashuvlardan foydalanib, o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin.

QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*.
3. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching*.
4. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*.
5. Murray, N. (2015). *Using Technology in Language Teaching*. Routledge.